

SHODMONQUL SALOM SHE'RIYATI TAHLILI

DINORA KARIMBOYEVA RUSTAM QIZI

Nukus davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti

yo'nalishi talabasi, Nukus shahri

**Ilmiy rahbari: Hamza Allambergenov – Nukus DPI O'zbek adabiyoti
kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

O'zbek o'zligini anglasa bekam,

Uning "Barakalla" bo'lgani shudir.

Olamga Navoiy nasliman degan

Ovozi baralla bo'lgani shudir.

Albatta, ardoqli o'zbek xalq shoiri Erkin Vohidov qalamiga mansub ushbu shoh satrlarda o'zbek xalqining o'zligini anglashi, asl nasli kimlar ekangiligi unutmazligi, har bir qilayotgan harakati shu millatga xos bo'lishi kerakligi uqtirilayotgan bo'lsa, o'zbek she'riyatida bugun ham mana shunday ehtirom ruhidagi asarlar yaratilyotgani barchani hayajonga solishi shubhasiz. Chunki adabiyotda mana shunday shoh satrlar qanchalik ko'p bo'lar ekan asrlarda davomida O'zbek adabiyoti yanada barhayot yashaydi degani emasmi aslida? Bu bilan nima demoqchiman mana shunday ulug' insonlarning izdoshi sifatida qalam tebratib barchaning qalbiga yashaydigan, o'zbek millatini asrlar davomida barhayot bo'lishida oz bo'lsada o'z hissasini qo'shish uchun adabiyotimizga qadam ranjida qilayotgan qalami o'tkir ijodkorlardan Shodmonqul Salom sherlaridagi shu mavzuga yaqin jihatlari haqida so'z yuritmoqchimiz.

Jumladan, Shodmonqul Salomning "Ehtirom" nomli she'riga to'xtalar ekanmiz, avvalo, birinchi banddayoq kitobxonni o'ziga tortadigan o'xshatishlarga duch kelamiz:

Ildizdagi tuyg'udan yaproqlarim titraydi,

Tog 'da jim erigan qor soylarda sharqiraydi,

Bobom bo'g'zidagi "Oh" ko'zimdan tirqiraydi,
She'r jonidan to'rganmi dil tubiga sakraydi,
Bu holimga ufqdan birov to'lib qaraydi,
Asrlar ham bir birin odam kabi qumsarkan,
Bunda she'r o'qiy desam, quyosh ko'zni to'sarkan.

Shoir birinchi misradagi o'xshatishi o'ziga xosligi bilan etiborni tortadi. Avvalo o'shatish nazariyasiga nazar tashlaylik: "Tashbeh-(arabcha o'xshatish) sharq adabiyotida keng tarqalgan san'atlardan biri bo'lib, lug'atda o'xshatish ma'nosini ifodalaydi. Tashbeh ikki narsa yoki tushuncha orasida haqiqiy yoki majoziy, moddiy yoxud ma'naviy o'xshashliklar va munosabatlar asosida yuzaga keladi".⁵ Yuqorida misrada esa qalbini ildizga mengzayapti, tanani esa yaproqlarga. Nega aynan qalbni ildizga o'xshatyapdi degan savol tug'ulishi mumkin, albatta. Biologiya fanidan bilamizki ildiz bu o'simlikning oziqlanadigan, kuch, energiya oladigan qismi ya'ni idizsiz o'simlik quriydi, balki shoir mana shu narsaga urg'u berayotgandir, jumladan, qalb ham mana shunday inson uchun „energiya manbai“ demoqchidir. Odamlar orasida ko'p eshitamiz uning yuzidagi go'zallikka emas, qalbidagi go'zallikka qara degan jummalarni, mana qalb go'zalligi qanchalik muhimligini shoir mohirlik bilan birgina so'z orqali ifodalagan, xolos. Keyingi misrada esa bundanda ajoyib tashbeh „jim erigan qor“. Ijodkor o'zidagi jimlik, sokinlikni mana shu misra orqali kitobxonga bildirib, o'shi jimlik „soylarga sharqiraydi“ ya'ni nazmga ko'chadi demoqchidir balki. Uchinchi misradagi „tirqiraydi“ so'ziga to'xtalaylik. Nega aynan „tirqiraydi“? boshqa so'z bo'lishi ham mumkin ediku. Masalan „to'kiladi“, „yig'laydi“, „oqadi“. Yo'q, shoir aynan mana shu so'z orqali qanchalik bobosining ko'rgan azoblarini, chekkan dardlarini ifoda etmoqda. So'ngi misralarda asrlarning bir-birini qumsashi ya'ni

⁵ Salaev F, Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi. – Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2010. – B.255.

bizning buyuk bobo-kolonlarimiz yashagan, ijod qilgan, yer yuzini hayratda qoldirgulik ilm namunalarini yaratgan davrlar xotirlanyapti.

Bunda ey, niyatlarin yaproq kabi to‘kkanlar,
Bir elning hasratini dilda mushtdek tukkanlar,
Ey, qanotsiz uchganlar, qush tilidan o‘pganlar,
Asrlar yuragida yugurik qonday chopganlar,
Usti ochiq dunyoning etagini yopganlar,
Oltin qoziqqa boqib sayyoh ham yo‘l toparkan,
O‘zbekni izlaganlar Navoiydan toparkan.

Ushbu band ko‘rib turganimizdek takrorlanmas va o‘ziga xos o‘xshatishlarga boy undalmalardan iborat. Bu yerda shoir zimdan xalqqa murojat qilmoqda. Ya’ni xalqning dardi, kechirgan kechmishi bilan bog‘liq bo‘lgan holda bir-biriga uyg‘un holda yaratilgan tashbehlar bilan undalmalar marjondek tizilgan. Mana endi misralardagi aks ettirilmoqchi bo‘lgan ma’nolarga to‘xtalaylik. Bilamizki, o‘zbek xalqi ne-ne qiyinchilik, sinovlarni boshidan o‘tirmadi deysiz, lekin mana shunday damlarda ham ular niyat qilishdan to‘xtamagan, umidini uzmaganligini birinchi misradaroq anglashimiz mumkin. Keying misralarda ham xalqimizning asrlar davomida boshidan kechirgan yaxshi-yomon kunlari ajoyib tarzda misralarga to‘kilgan. Bu band orqali shoir o‘zbekning o‘zilini, qanday xalq bo‘lganligini bilmoqchi bo‘lganlar Navoiyni o‘qisin, undan hammasini topadi demoqchi. Ushbu she’r besh banddan iborat bo‘lsa, shundan ikki bandida “O‘zbekni izlaganlar Navoiynidan toparkan” misrasi naqorat qilingan. Bekorga yuqorida ibtidoda Erkin Vohidovning she’ridan keltirilgan parchalar qaysidir ma’noda mana shu misralarga ishora edi. Ularda o‘xshash jihatlar shundaki ikkisida ham Navoiy orqali o‘zbek xalqini bilish, anglash zarur demoqda. Erkin Vohidov o‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa nima bo‘lishini aytyotgan bo‘lsa, Shodmonqul Salom mana shu bashoratdan xabardor xabardor shoir sifatida

Navoiyni o‘qishga, uni o‘rganishga chaqiryapdi. Mana bir-birini taqozo qiladigan jihatlar nimada.

Bobo tuproq, shon tuproq, ildizim botgan tuproq,

Taftin tanimga berib, o‘zi sovqotgan tuproq.

Ona yer, ona tuproq. Bu so‘zlarga nega “ona” so‘zi qo‘shilib aytilishini hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Chunki bu zamin biz tug‘ilib o‘sgan yer, ona kabi bizga qadrli, mo‘tabar. Har qarich yeri esa aziz. Mana shu qarich yer uchun, ona zamini uchun ne-ne ajdodlarimiz jonini fido qilib janglarga kirmadi, qon kechmadi deysiz. Yuqorida keltirilgan baytda ham shu tuproqning azizligi, ko‘zga to‘tiyoligi madh etilmoqda. Bir qaraganda bu baytlarda Zahriddin Muhammad Bobur yashayotgandek go‘yo. Bilamizki Bobur butun umr Vatan sog‘inchida, vatanga qaytish ilinji bilan yashadi. U ham ona tuproq uchun kurashmadi deb o‘ylaysizmi, yo‘q u Vatan uchun kurashda shunday dahshatli janglarni ko‘rdiki lekin chekinmadi Vatan deb yashadi. Boburning mana shu kurashlari P. Qodirovning “Yulduzli tunlar” asarida juda go‘zal tarz bayon etilgan. Shodmonqul Salom esa mana shularni ikki misra orqali kitobxonga yetkazmoqda.

Vohki, Ko‘nglim shu damda buncha bunyod ko‘ringay,

Ko‘zim yumib qarasam, bunda Hirot ko‘ringay,

Ko‘zim ochib qarasam, mangu ijod ko‘ringay,

Ko‘zim uzmay tikilsam, shunday ajdod ko‘ringay,

Ko‘z yosh bilan qarasam, Puli Sirot ko‘ringay,

Bobo! Ko‘zlarim yondi – ko‘ngil shunday to‘larkan,

Bundagi har navnihol chinorday bo‘y olarkan,

O‘zbekni izlaganlar Navoiydan toparkan.⁶

Shodmonqul Salomning “Ehtirom” she‘ridagi ushbu so‘ngi misralarda undagi olam-olam ma’nolar bilan bir qatorda yana bir qator san’atlarni ham

⁶ Shodmonqul Salom. Borligini bilganlar. – Toshkent: Uzbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2013. – B.34.

uchratishimiz mumkin. Jumladan, anafora, tashbeh, talmeh, san'atlari misolida tahlilga tortar ekanmiz, avvalo, ushbu san'atlarga nazariy tariflar keltirib o'tish joizdir: "Anafora- (yun.anaphora- yuqoriga ko'tarilish) bir xil tovushdan, so'z yoki so'zlarning she'riy misralar boshida takrorlanib kelishiga asoslangan stilistik vosita."⁷ Banddan birinchi ko'zga tashlanib turgan ushbu san'at misralar ohangdorligini, jozibasini, kitobxonga tasirini yanada oshirgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ya'ni anaforaga misol sifatida bu yerda bizni "Ko'zim" ni olishimiz mumkin, bu so'z ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi misralarda takrolanib ushbu san'atni yuzga keltirgan. Va beshinchi oltinchi misralarda bu so'z "Ko'z", "Ko'zlarim" tarzida keltirilgan. Ushbu misralardagi talmeh san'atiga e'tibor qaratar ekanmiz birinchi nazariy ma'lumotlarga tayanamiz: "Talmeh – (arabcha – nazar solmoq) she'rda mashhur tarixiy voqea, afsona va dostonlar qahramonlari, taniqli tarixiy shaxslarga ishora qilish orqali tasvirlanayotgan obrazning u yoki bu jihatini takidlash, bo'rttirib ko'zsatishga yo'naltirilgan she'riy san'at."⁸ Demak yuqoridagi misralarda talmeh san'atiga misollar bir nechadir. Bular "Hirot", "Puli Sirot", "Navoiy" kabi talmehlar. Ikkinchi misradagi talmeh joy nomi bo'lib bunda Navoiyning tug'ilgan shahriga ishora bor. Va yana shuni ham aytish joizki Hirot Temuriylar davri ayniqsa, Shohrux Mirzo davrida taraqqiy etgan ilm-fan markazlaridan biri bo'lganligi barchamizga ma'lum. Ushbu so'zlarimiz tasdig'ini ko'rish mumkin: "Uchinchi o'g'il Boysunqur Mirzo – Hirot bosh vazir. U otasi nomidan barcha rassomlarga bosh bo'lib, Bog'i Sefidga qurilgan ulkan qasrning ichiga ajoyib suratlar chizdirdi. Hirot Shohrux Mirzo nomiga bir madrasa, Gavharshod begim nomiga yana bir maqrasa qurildi."⁹ Mana ko'rib turganimizdek shoir birgina "Hirot" talmehi orqali bir qancha tarixlarni misralarga singdirgan.

⁷ Salaev F, Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi. – Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2010. – B.25.

⁸ Salaev F, Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi. – Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2010. – B.245.

⁹ Pirimqul Qodirov. Ona lochin vidosi. – Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2019. – B.23

Keyingi talmehga olingan soʻz “Puli Sirot”. Bu qiyomat kundagi gunohi yoʻqlar oʻtadigan, gunohi borlar doʻzaxga qulaydigan koʻprikni anglatuvchi diniy tushuncha hisoblanadi. Yaʼni misralar orqali shoir koʻnglini ushbu damda shunday bunyod koʻryaptiki, koʻzlari yumilsa ilm-maʼrifat markazi Hirotni, koʻzlarin ochsa koʻngil mulki ijodni, koʻzini shunday yumib uzoqlarga uzmasga qarasa uzoq-uzoq oʻtmishlar, ajdodlarni koʻrayotgan boʻlsa, koʻzida yosh bilan Puli Sirot koʻrinmoqda deb koʻzlari yonayotganligini bayon qilgan. Ijodkor oʻzidagi ilhom, iqtidor, yaxshi hislatlarni oʻsha buyuk bobokolonlarimizdan olamiz degan maʼnodagi misralar terilarkan, kimki Oʻzbekni izlasalar Navoiydan topishini aytib sheʼrni chiroyli yakunlaydi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, Shodmonqul Salomning ushbu “Ehtirom” nomli sheʼri chindan ham nomiga monand ehtirom ruhida yozilgan desak ayni haqiqatni aytgan boʻlamiz. Bunda ijodkor tomonidan ajdodlarga ehtirom yetakchi rol kasb etgan. Va yana shuni ham takidlayapdiki bizning oʻzligimiz, milliygimizni, asl kimlarning avlodlari ekanligimizni unutmasligimiz keraklarigi asardagi har bir misraga bot-bot singdirilgan. Ayniqsa biz bugungi kun yoshlari Navoiyni, uning ijodini yanada koʻproq mutola qilishimiz mana shu orqali oʻzigimizni anglashimiz ham zimdan goʻzal oʻshatishlar, tasviriy ifodalar, jozibador soʻzlar orqali kitobxon maʼnaviyatiga singdirilmoqda. Shuni ham takidlash joizki, shoir soʻzlardan oʻrni oʻrnida foydalana olishi, ularni takrorlanmas, orginal oʻzshatishlar bilan berishi “Ehtirom” sheʼrining jozibasini, ravonligi va tasirchanligini yanada oshirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pirmqul Qodirov. Ona lochin vidosi. – Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2019. – B. 23.
2. Salaev F, Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli soʻzligi. – Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2010. – B. 25,245,255.

3. Shodmonqul Salom. Borligini bilganlar. – Toshkent: Uzbekiston Milliy ensklopediyasi nashriyoti, 2013. B. 34.